


## ZAMONAVIY XITOIY ADIBI MO YAN IJODINING ROSSIYADA O‘RGANILISHI HAQIDA

 <https://doi.org/10.24412/2181-1784-2023-21-412-415>

**Quliyeva Durdona Asliddinovna**

“Yaqin sharq tillari” kafedrası assistent-o‘qituvchisi  
Samarqand davlat chet tillar instituti  
[doshka77anoshka@gmail.com](mailto:doshka77anoshka@gmail.com)

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy Xitoy adabiyotining yorqin namoyondasi, Nobel mukofoti sovrindori, ko‘plab noodatiy mavzulardagi romanlar muallifi Mo Yan ijodining Rossiyada tutgan o‘rni, Mo Yan romanlarining o‘rganilishi va tarjimasi haqida so‘z yuritiladi. Rus xitoyshunosi va tarjimon Igor Yegorovning Mo Yan asarlarini tarjima qilishdagi muammoli vaziyatlar va Mo Yan ijodining rus va xitoy adabiyotining rivojlanishida tutgan o‘rni ko‘rib chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:** xitoy adabiyoti, madaniy inqilob, 4-may harakati, May mamlakati, satirik roman, Nobel mukofoti*

## STUDYING THE WORKS OF MODERN CHINESE WRITER MO YAN IN RUSSIA

**Kulieva Durdona Asliddinovna**

Assistant teacher of the "Middle eastern languages" department  
Samarkand State Institute of Foreign Languages  
[doshka77anoshka@gmail.com](mailto:doshka77anoshka@gmail.com)

***Annotation.** This article examines the role of Mo Yan, a prominent representative of modern Chinese literature, Nobel Prize winner, author of novels on many unusual topics. Study, translations and problematic situations of Mo Yan's novels discussed by the Russian researcher and translator Igor Egorov and the role of Mo Yan's works in the development of Russian and Chinese literature are considered as well.*

***Key words:** Chinese literature, cultural revolution, May 4th movement, Country of wine, satirical novel, Nobel Prize*

Xitoy zamonaviy adabiyotining Rossiyada tutgan o‘rni haqida gapirganda, afsuski shuni xulosa qilishimiz mumkinki, rossiyaliklar Xitoy adabiyoti vakillari bilan deyarli tanish emas.

Xitoyshunos olim, tarjimon Yegorov Igor Aleksandrovich bu holatning sababini birinchi navbatda oxirgi 30-40 yillarda Xitoy siyosatining adabiyotga o‘tkazayotgan mutassil ta‘sirida deb ko‘rsatadi.[Егоров 2014:5]

Madaniy inqilob Xitoy adabiyotiga juda ham katta ta‘sir ko‘rsatdi, chunonchi, madaniyat to‘laqonli ravishda siyosiy qarashlar ta‘sirida edi; yozuvchi va rassomlar qishloqlarga “qayta tarbiyalash”ga jo‘natilgan, ko‘pchilik adiblar esa bunaqa xo‘rlikka chiday olmasdan vafot etib ketishgan, bunga mashhur “Riksha” asari muallifi Lao Shen (老舍) misol qilib keltirishimiz mumkin. [Ziyamammedov, Komilova 2009:32]

XX asr boshlari Xitoy adabiyoti mamlakat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy masalalarni to‘laqonli aks ettiradigan manba sifatida taraqqiy etdi. XX asr birinchi yarmi Xitoy ijtimoiy-siyosiy hayotida bir nechta muhim voqealar sodir boldi. Shulardan birinchisi 1911-yilgi inqilob hisoblangan, adabiyot bu yo‘lda eng kuchli kurashchi sifatida o‘zini namoyon etgan. Ayniqsa, 1919-yilgi 4-may harakati davrida adabiyot va madaniyat sohasida bir qancha o‘zgarishlar sodir boldi. Matbuotning jamiyat hayotidagi mavqei oshdi, turli xil jurnallar chop etila boshlandi, haqiqatni hamda xalq hayotini o‘zida mujassam etgan turli xil maqolalar chop etila boshlandi.[Ziyamammedov, Komilova 2009: 5]

Hozirgi kunda Xitoyda adabiyotga bo‘lgan munosabat tamomila o‘zgargan. Rus olimlarining statistik ma‘lumotlariga ko‘ra Xitoyda har yili 15mingdan ziyod badiiy kitoblar umumiy tirajda 160 million nusxadan ziyod chop etiladi. Bu nashrlarning ichidan uch mingtasi roman, qissa, hikoya va she‘rlar esa qolgan sonlarni tashkil etadi. Bundan tashqari mamlakatda 600 dan ortiq badiiy jurnallar va internet adabiyotlari kitobxonlar tomonidan sevib o‘qiladi, 500dan ortiq internet saytlari aynan adabiyot yo‘nalishida adabiyot shinavandalarini ma‘lumotlar bilan ta‘minlab turadi.

Xitoyda yozuvchi va adiblar soni ham milliontaga yetgan hamda shulardan taxminan 10mingtasi xalqaro badiiy mukofotlar sohibi, Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi sifatida xalqaro nufuzga egadir. Yuqoridagi sonlardan oxirgi yuz yillikda Xitoyda adabiyot sohasidagi raqobat qanchalik kuchayganini va bu raqobat, tabiiyki, badiiy o‘sishni yuzaga keltirganining guvohiga aylanishimiz mumkin. Kuchli raqobat o‘z o‘rnida yana adabiyot vakillarining yangidan-yangi qirralarini ochishlariga, yorqin fikrlarini yanada jozibador ranglarda xalqqa yetkazishlariga undashi, shubhasiz.[Родионов 2014: 5]

Adabiyotning shakllanishi va rivojlanib borishi, tabiiyki, Xitoyning boshqa davlatlar bilan aloqasiga ham ta‘sir ko‘rsatmay qolmaydi. Buncha ko‘p bo‘lmagan muddat oldin, Xitoy adabiyotining birorta ham mahsuli rus tiliga tarjima qilinmagan edi va faqatgina xitoyshunos olimlar Xitoy adabiyotini o‘rganishga intilishar edi. Oxirgi yillarda esa vaziyat butkul o‘zgardi: Xitoy adabiyoti borgan sari ommalashib, kitob rastalarida Xitoy adabiyotiga oid kitoblarga bo‘lgan talab tobora oshib bormoqda.

Shuni ham e'tirof etish kerakki, Xitoy adabiyoti namunalari ingliz, fransuz va boshqa yevropa tillariga rus tilidan ko'ra bir necha marotaba ko'proq tarjima qilingan va bu Yevropa xalqlarining Xitoy adabiyotiga qiziqishini bildiradi hamda bu hol odamni quvontiradi, albatta.[Егоров 2014: 6]

Rossiya nashriyoti esa Xitoy adabiyotini hali ham avvalgidek sust deb biladi, hamda qimmatga tarjima qilingan adabiyot mahsullari kitob rastalarida sotilmasdan qolib ketishidan ham o'zlarini himoya qilishadi, Hammamizga ma'lumki, xitoy tilidan tarjima qilish boshqa tillardan tarjima qilishdan ko'ra ancha qimmatroq turadi.

Rus xitoyshunosi va tarjimon Igor Yegorovning ta'kidlashicha, u Mo Yan asarlarini tarjima qilish bilan bir necha yildan beri shug'ullanib kelgan ammo, Mo Yan 2012-yil oktyabrda Nobel mukofotini qo'lga kiritib butun dunyoga tanilganidan keyingina uning tarjima asarlarini chop etish imkoni paydo bo'lgan.

Xitoyshunos-tarjimonning nazdida aynan mana shu mukofotga loyiq deb topilishi rossiyaliklarning adib ijodi bilan tanishishlariga turtki bo'lgan va bu hali Mo Yan ijodining rus xalqining mehrini zabt etishidagi ilk qadamlari hisoblanadi.

Igor Aleksandrovichning Mo Yan ijodidan ilk tarjima asari “May mamlakati” (酒国) hisoblanadi. Bu kitobxonlar tomonidan juda ham ko'plab tanqidlarga va izohlarga sabab bo'lgan yorqin va noodatiy asar hisoblanadi. Tarjimonning o'zining aytishi bo'yicha, u atayin mana shu asarni tarjima uchun tanlagan bo'lib, bu uning rus auditoriyasi uchun o'ziga xos marketing uslubi hamdir. Mazkur asar satirik roman hisoblanib, 90-yillarning boshida xitoydagi muammolar juda ham o'tkir badiiy tilda tasvirlangan, romanda amaldorlarning barcha “ezgu” ishlari mohirona aks ettirilganligi uchun ham asarni kitob holidagi chop etilishiga juda ham ko'plab qarshiliklar yuzaga kelgan.[Егоров 2014: 9]

Tarjimon Igor Yegorov tomonidan tarjima qilingan ikkinchi tarjima asar bu “Katta ko'krak va keng belostilar” (丰乳肥臀) romani hisoblanadi. Bu romanda ham asosiy qahramon Shanguan Lu obrazi orqali Xitoydagi juda ham dolzarb siyosiy, ijtimoiy masalalar qattiq tanqid ostiga olingan.

Tarjimon tomonidan amalga oshirilgan eng katta uchinchi ish bu “Hayot va o'lim charchoqlari” (生死疲劳) romani hisoblanadi. Mazkur romanda 1950-yildan keyingi reformalarning ijtimoiy hayotga ta'siri haqida so'z yuritiladi.

Yegorov Igor Aleksandrovich Mo Yan ijodini juda ham chuqur his etgan holda mutolaa qiladi va tarjima qiladi. Mo Yanning har bir romani Xitoyning XX asrdagi tarixidan xabar beradi va mazkur romanlarni xitoyliklarning o'sha davrdagi hayoti ensiklopediyasi deb atasak ham mubolag'a bo'lmaydi.[Егоров 2014: 19]

Mo Yanning ta'kidlashicha, adib rus adabiyotiga juda ham qiziqadi, hatto yoshligida akasining adabiyot darsligidan rus adibshunosi A.S.Pushkinning “Baliq va baliqchi haqida” («Сказка о рыбаке и рыбке») ertagini o'qigan va bu adibning ilk xorij adabiyotidan namuna mutolaa qilishi hisoblangan. Keyinroq adibni Maksim Gorkiyning qissalari qiziqtirib qolgan. O'sha vaqtda Xitoyda juda ham mashhur bo'lgan Nikolay Ostrovskiy tomonidan yozilgan “Po'lat qanday toblandi” («Как

закалялась сталь») romaniga ham befarq bo‘lmagan, tabiiyki. Mo Yanning eng sevimli rus yozuvchisi esa “Tinch Don” («Тихий Дон») romani muallifi Mixail Sholoxov hisoblanadi.[ Мо Янь 2012: 243]

Yuqorida keltirilgan fikrlardan Mo Yan ijodining oxirgi yillarda Rossiyada keng tarqalayotganligi va bunga yozuvchi ijodining ham tarix ham zamonaviylik bilan uyg‘unlashganligini sabab qilib keltirishimiz mumkin. Zamonaviy adabiyot vakilining 2012-yilda Nobel mukofotini aynan “Xalq ertaklarini tarix va zamonaviylik bilan birlashtirgan galyutsinatorli realizm” yo‘nalishi bo‘yicha qo‘lga kiritgani ham bejizga emas.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCE):

1. Егоров И. А. Лауреат Нобелевской премии писатель Мо Янь и современная китайская литература. (Университетский мастер-класс). – СПб.: СПбГУП, 2014. С.5
2. Ермолова А.А. Выпускная квалификационная работа на тему: Образ семьи в литературном творчестве Мо Яня, Санкт-Петербург -2016
3. Мо Янь/Суйюй вэньсюэ (Беседы о литературе. Сборник интервью с писателем). Пекин: Цзоцзя чубаньшэ, 2012. С.243
4. Родионов А.А. Молодая кровь китайской литературы. Сборник произведений молодых китайских писателей «Красные туфельки». – СПб.: КАРО, 2014. С.5
5. Ziyamuhammedov J, Komilova Sh-Xitoy adabiyoti (Yangi davr) o‘quv qo‘llanma, Toshkent-2009